

ARAB TILI VA O‘ZBEK FONETIKASI: ARABCHA TOVUSHLARNING O‘ZBEK TILIGA FONETIK MOSLASHUVI

Mamadumarova Zamirabonu Shavkatjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Arabshunoslik oliy maktabi,

Arab-ingliz filologiyasi yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Tel.: +998 50 578 07 03

E-mail: zmuhammadumarova@gmail.com

Ilmiy rahbar: I. Bultakov

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22021749>

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilining o‘zbek fonetik tizimiga ta’siri hamda arab va o‘zbek tillarining fonetik tizimlari o‘rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Arab tiliga xos bo‘lgan emfatik va farqlanuvchi undosh tovushlar o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagani sababli ular turli o‘zgarishlarga uchragani misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, arabcha ‘ayn, hamza, sod, zo, to, zal, qof kabi tovushlarning o‘zbek tilida qanday o‘rinbosar tovushlar orqali ifodalangani unli va undosh tizimidagi moslashuvlar bilan birga tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *fonetika, fonetik moslashuv, tovush o‘zgarishi, unli tizimi, emfatik tovushlar, fonologik farqlar.*

O‘zbek tili Markaziy Osiyodagi eng yirik turkiy tillardan biri bo‘lib, uning lug‘at boyligi tarix davomida turli tillar, ayniqsa arab, fors va rus tillari bilan aloqalar natijasida shakllangan. Shulardan eng kuchli ta’sir aynan arab tiliga tegishlidir. VIII asrdan boshlab islom dini tarqalishi, madrasalarda ta’limning arab tilida olib borilishi, diniy-ilmiy adabiyotlarning arab tilida yaratilishi tufayli o‘zbek tili lug‘ati, fonetikasi, hatto grammatik tizimiga arab tilining kuchli qatlamlari kirib kelgan. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan so‘zlar bugungi kunda o‘zbek tilining asosiy lug‘at boyligining muhim qismini tashkil etadi. Masalan, ta’lim (maktab, madrasa, kitob), din (namoz, ro‘za, duo), mafkura (ilm, hikmat, adolat), ma’muriy boshqaruv (qonun, davlat, millat), fan-terminologiya (mantiq, falsafa, nahv, sarf) sohalarida ishlatiladigan minglab so‘zlar aynan arab tilidan kirgan. Bu so‘zlarning o‘zbek tilidagi talaffuzi va shakli arab tilidagi asl ko‘rinishidan ancha farq qiladi. Buning sababi ikki tilning fonetik tizimi bir-biridan keskin farqlanishidir.

Arab tilida undosh tovushlarni shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin:

1. Arab va o‘zbek tillari uchun umumiy undosh tovushlar
2. Arab tiliga xos undosh tovushlar.

Arab va o‘zbek tillari uchun umumiy undosh tovushlar 19 ta bo‘lib, ular quyidagilar:¹

Jadval

b- ب	d- د	z- ز	v- و	j- ج	y- ي	k- ك	r- ر	x- خ	l- ل
s- س	sh- ش	m- م	t- ت	q- ق	n- ن	f- ف	g'- غ	h- ه	

Bu tovushlar ichidan quyidagilarning talaffuzi o‘zbek tilidagidan qisman farq qiladi:

¹Ibrohimov N, Yusupov M, Oripov A. Arab tili grammatikasi 1-jild. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024

1."Vov" (و) tovushi o'zbek tilidagi "v" tovushidan hosil bo'lish o'rniga ko'ra farq qiladi. O'zbek tilidagi "v" lab-tish tovushidir, arab tilidagi "v" esa ikki labning o'zaro yaqinlashishidan hosil bo'luvchi lab-lab tovushi hisoblanadi.

2."Lom" (ل) tovushi arab tilida yumshoq talaffuz qilinadi (" 'Allohu" so'zi bundan mustasno)

3."Ha" (ه) tovushi o'zbek tilidagi "h" tovushidan yengilroq talaffuz qilinadi.

Arab tiliga xos bo'lgan undosh tovushlar 8 ta:

1."Zal" (ذ) tovushi. Talaffuzi: bu tovush arab tilida "dh" yoki yumshoq "z" tarzida talaffuz qilinadi. Bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish uchun tilning uchini yuqori va pastki tishlar orasidan tashqariga bir oz chiqarish kerak.

O'zbek tiliga o'tishida ko'pincha z tovushiga o'rinbosar bo'ladi.

Misol:

ذِكْر - zikr (yodga olish)

زُرِّيَّة - zurriyot

مَذْهَب - mazhab

ذُو الْفَقَار - Zulfiqor

2."Sa" tovushi. "Zal" tovushining jarangsiz varianti. Arab tilidagi "ث" tovushi ingliz tilidagi "th" (think) kabi talaffuz qilinsa-da, o'zbek tilida u "s" tovushiga aylangan.

ثَبَات - sabot

ثَرِيَا - Surayo (ism)

ثُبُوت - subut (qat'iylik)

إِسْبَات - isbot, dalil

3."Ha" (ح) tovushi. Bu tovush talaffuzi davomida davomida o'pkadan chiqayotgan havo bo'g'izdan tiqilib, kuch bilan chiqadi. O'zbek tiliga o'tishi: oddiy "h" tovushiga mos keladi, lekin arab tilidagi talaffuzi yanada chuqurroq.

حَسَن - yaxshi, Hasan (ism)

حُب - muhabbat, sevgi

حَيَاة - hayot

حَرَام - harom

حَلَال - halol

4."Ayn" (ع) tovushi. Talaffuzi: bu tovush o'zbek tilida yo'q, orqadan keladigan bo'g'iz tovushidir. O'zbek tiliga o'tishi: ko'pincha so'zda yo'qoladi yoki unli tovush bilan almashtiriladi.

عِلْم - ilm

عَمَل - amal

عَقْل - aql

عَزِي - aziz

مُعِيْن - muayyan

مُعَلِّم - muallim

5."To" (ط) tovushi. Talaffuzi: bu tovush arab tilida qattiq, emfatik "t" bo'lib, til orqasining qattiq harakatlari bilan chiqariladi. O'zbek tiliga o'tishi: ko'pincha so'zda oddiy "t" tovushiga aylantiriladi va talaffuzda qattiqligi sezilmaydi.

طَاعَة - itoat

طَرِيقَة - tariqat, yo'l,

طَبِّ - tibbiyot

طَبِيب - tabib
طَبِيعَة - tabiat
طَلَب - talab
طَعَام - taom
طَاقَة - toqat, chidamlilik

6."Zod"(ض) tovushi.Talaffuzi: arab tilida bu tovush emfatik, orqadan bo'g'iz orqali chiqariladigan qattiq "d" tovushidir. O'zbek tilida bunday tovush yo'q, shuning uchun bu tovush "z" sifatida talaffuz qilinadi.

ضَرَر - zarar
رَمَازَان - Ramazon
ضَرُورَة - zarurat
ضَابِط - zobit, ofitser
ضَعِيف - zaif
ضِد - zid, qarshi
ضَرْب - zarb

7."Sod"(ص) tovushi.Talaffuzi: arab tilida "sod" tovushi - bu emfatik, qattiq va orqa qismdan chiqariladigan "s" tovushidir. O'zbek tilida bunday tovush mavjud emas, shuning uchun u yumshatilgan oddiy "s" sifatida talaffuz qilinadi.

صَبْر - sabr
صَحِيح - sahih (to'g'ri)
صِفَة - sifat
صَفْحَة - sahifa
قِصَّة - qissa, hikoya

8."Zo"(ظ) tovushi.Bu harf emfatik, ya'ni bo'g'izdan chiqariladigan, qattiq "z" tovushidir.Talaffuzi: arab tilida og'ir, qattiq "z" tovushi sifatida aytiladi, orqa qismdan chiqadi.O'zbek tilida bunday tovush yo'q, shuning uchun so'zlarda u odatda yumshatilgan oddiy "z" sifatida talaffuz qilinadi.

ظَاهِر - zohir, ko'rinib turgan
ظُلْم - zulm
ظَفَر - zafar
ظَالِم - zolim

Fonetikada unliharflar - so'zlarda ovozning asosiy qismi bo'lib, talaffuzda muhim o'rin tutadi. Arab tilida uchta asosiy unli tovush mavjud:

1. Fatha (اَ) - a tovushi (كُتِبَ - kataba)
2. Kasra (اِ) - i tovushi (كِتَاب - kitāb)
3. Damma (اُ) - u tovushi (كُتُب - kutub)

Har bir unli tovush qisqa va uzun shaklda bo'ladi. Uzun tovushlar maxsus harflar yordamida ifodalanadi:

Alif (ا) - uzun ā tovushi (بَاب - eshik)
Ya (ي) - uzun ī tovushi (كَرِيم - Karim)
Vov (و) - uzun ū tovushi (مَكْتُوب - maktub)

Arab tilida unli tovushlarning uzun yoki qisqa bo'lishi so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkin:

جَمَل - tuya

جَمَال - go'zallik

قُرُون - quruqlik

بَارُون - odobli

Shu bilan birga, unli tovushlarning uzunligi grammatik ma'noni ham belgilashi mumkin:

كَتَبَ (kataba) - u yozdi (fe'l)

كَاتَبَ (kātaba) - u yozishdi (birgalikda yozish fe'li)

O'xshash jihatlariga keladigan bo'lsak, har ikkala tilda ham a, i, u tovushlari mavjud bo'lib, ular nutqning asosiy qurilish elementlari sifatida xizmat qiladi. Ikkala tilning ham unli tizimi so'z ma'nosini ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Hamza (ء) arab tilida bo'g'iz orqali chiqariladigan to'siq tovush sifatida namoyon bo'ladi. Bu tovush so'z boshida yoki o'rtasida bo'lishi mumkin va so'z ma'nosini ajratishda muhim rol o'ynaydi.

Bu tovush o'zbek tilida fonema hisoblanmaydi, lekin talaffuzda qisman mavjud. O'zbek tilidagi "aka", "uka", "ini" so'zlardagi kabi birinchi o'zakni tashkil qilgan so'zlarda uning talaffuzi sezilmaydi, balki u o'zbek tilidagi "a", "u", "i" unli tovushlardek talaffuz qilinadi. "Hamza" o'zbek tili o'zlashtirgan ba'zi arabcha so'zlarda ayiruv belgisi (harfi) bilan ifodalanadi (masalan: mas'ul, mash'um, ma'mur)

Xulosa. Arab tili va o'zbek tilining fonetik tizimlari orasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar tilning talaffuzida va tovush tizimida o'z aksini topadi. Arab tiliga xos bo'lgan emfatik, portlovchi va farqlanuvchi undosh tovushlarning o'zbek tilida aniq o'rinbosarlari mavjud emasligi sababli, arab tilidan o'zbek tiliga kirgan so'zlarning talaffuzi va shakli fonetik jihatdan o'zgarishga uchraydi.

Masalan, arab tilidagi 'ayn (ع), hamza (ء), sod (ص), zo (ظ), to (ط), zal (ذ), qof (ق) kabi tovushlar o'zbek tilida turli o'rinbosar tovushlar orqali ifodalanadi yoki ayrim hollarda talaffuzda yo'qoladi. Shuningdek, arab tilidagi unli tovushlar qisqa va uzun shakllarda bo'lib, ularning uzunligi so'z ma'nosini o'zgartiruvchi fonemik ahamiyatga ega, o'zbek tilida esa unli tovushlarning uzunligi fonemik farq yaratmaydi. Arab tilidan o'zbek tiliga o'tgan so'zlarning fonetik moslashuvi tilshunoslikda ikki til o'rtasidagi farqlarni anglash va o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullayev Sh. O'zbek tilining fonetikasi. - Toshkent: Fan, 2007.
2. Ibrohimov N, Yusupov M, Oripov A. Arab tili grammatikasi 1-jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijod uyi, 2024
3. Qodirov T. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. - Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2009
4. Shomusarov Sh. Arab tili fonetikasi. - Toshkent: TDSHU, 2025